



XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr

VI-45-94-4-58-K/21

Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanining 2022-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budget kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabirdagi 01/20-01-32/837-sonli xatiga muvofiq Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Qamashi tuman mahalliy budgetining 2022-yil uchun daromadlari **101 210 000** ming.so‘m, xarajatlari **238 848 499,0** ming.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budgetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar **137 638 499** ming.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Qamashi tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024 yillarga maqsadli mo‘ljallari **1-ilova**ga muvofiq, Qamashi tuman mahalliy budgeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun Qamashi tuman mahalliy budgetidan mablag‘ oluvchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Umumdavlat soliqlaridan Qamashi tuman mahalliy budgetiga 2022-yildagi ajratmalar me’yorlari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budgeti bilan tuman mahalliy budgetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Qashqadaryo viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Qamashi tuman mahalliy budgetining 2022-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi **5-ilova** ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Qamashi tuman mahalliy budgetining 2022-yilgi yuqori budgetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdori **6-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budgetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun tumanning mahalliy budgeti zahira jamg‘armasi hajmlari **2 253 288 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budgetining 2022-yil uchun zahira jamg‘armalari tegishli budgetlar tasdiqlangan umumiylar xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman mahalliy budgetini ijro etishda yuqori turuvchi budgetdan ularga ajratiladigan budgetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budgetning zahira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2022-yil uchun Qamashi tumanning mahalliy budgeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **7-ilova**ga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda Xalq

deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budget xarajatlarini hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari tuman budgetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagи tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

xususiy lashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va

sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.G‘afurov), Moliya bo‘limi mudiri (Sh.Pardayev), Davlat soliq inspeksiyasi (G‘.Karamanov) tumandagi mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birlashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

tegishli budgetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejulashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budgeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budgetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budget daromadlar bazasini oshirish va qo‘srimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (G‘.Karamanov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budgetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlar bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida

fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklansin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (G‘.Karamanov), davlat kadastrlar palatasi Qamashi tuman filiali (Z.Jo‘raev) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (G‘.Karamanov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘srimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Qamashi tuman bo‘limi (M.Safarov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (G‘.Karamanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budgetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklansin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi (Sh.Bekmurzaev), tuman hokimligi bilan jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy

hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (SH.Bo‘riev), bo‘sh turgan ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (I.Jo‘raev) va tuman hokimligi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijara berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijara berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiyashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini “e-ijsro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (SH.Bo‘riev), viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov), viloyat moliya bosh boshqarmasi (F.Yusupov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022-yilning 1 iyuliga qadar 2021-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budgetlarga o‘tkazilishini ta’minalash belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

19. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Sodiqov) tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budgetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Qamashi tuman irrigatsiya bo‘limi (A.Erdanov) va tuman davlat soliq

inspeksiyasi (G‘.Karamanov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yil yakuniga qadar mahalliy budgetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklansin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Tuman ichki ishlar bo‘limi (N.Meyliev), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Pirnazarov), Davlat xizmatlari agentligi tuman markazi (O‘.Xo‘jamurodov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budgetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Davlat moliyaviy nazorati Qashqadaryo viloyat boshqarmasi (N.Raxmatov) Xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budget intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budget intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilishi belgilanganligi ma‘lumat uchun qabul qilinsin.

23. Kengashning mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budget qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budget xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Tuman hokimligi:

tuman budgeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin;

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin.

mahalliy budgetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Tuman hokimining birinchi o‘rnbosari (R.G‘afurov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibi yoki tegishli budget tashkilot va muassasalar boshliqlari:

mahalliy budget daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minalasin.

27. tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (N.Rasulov), “Qamashi” gazetasi bosh muharriri (T.Tillayev)larga:

mazkur qaror “Qamashi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman

hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining “Qamashi tumani mahalliy budgetining 2021-yilgi asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 30-dekabirdagi 307/26-6-son qarori bekor qilinsin.

29. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Norqulov) va tuman hokimligi ma’sullari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



B.Tog‘ayev

Халқ депутатлари Қамаши туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-94-4-58-K/21-сон қарорига
1-илова

**Qamashi tumanining 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2023-2024-yillarga maqsadli mo‘ljallari**

№	Ko‘rsatkichlar	2022 yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2023 yil	2024 yil
1	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	0,00	0,00	0,00
2	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	0,0	0,0	0,0
3	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	116,8	118,3	119,5
4	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,8	105,0	105,5
5	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	111,4	111,5	111,6

Халқ депутатлари Қамаши туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-94-4-58-К/21-сон қарорига
2-илова

**Qamashi tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz
ko'rsatkichlari**

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami	ming so'mda
2	Aylanmadan olinadigan soliq	8 000 000	1 Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	47 500 000	
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	0	
5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	1 400 000	
6	Aksiz solig'i, jami	9 200 000	
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	9 200 000	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 300 000	
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 700 000	
9	Yuridik shaxslar yer solig'i	7 700 000	
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	11 500 000	
11	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	860 000	
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 600 000	
13	Davlat boji	0	
14	Jarimalar	0	
15	Ijara to'lovi	350 000	
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	550 000	
17	Yig'imlar	3 000 000	
18	Xususiylashtirish	550 000	
19	Boshqalar	0	
	JAMI	101 210 000	
20	Mobil aloqa xizmatlari	0	
21	Tamaki mahsulotlari	0	
22	Tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar	137 638 499	
	HAMMASI	238 848 499	

Халқ депутатлари Қамashi туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-94-4-58-К/21-сон қарорига
3-илова

**2022-yil uchun Qamashi tuman mahalliy budgetidan ajratiladigan mablag‘
oluvchilarga ajratiladigancheklangan miqdorlari**

минг сўмда

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	238 848 499,00
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman mahalliy budgetiga transfertlar	137 638 499,0
1.	Xalq ta’limi bo‘limi	8 800 548,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 800 548,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
2.	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	6 911 922,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 911 922,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	79 451 925,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	79 451 925,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4	Tibbiy xizmatlar uchun xarajatlar	266 684,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	266 684,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5	Madaniyat sohasi bo‘limlari	4 240 697,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 240 697,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

6	Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi	2 814 298,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 814 298,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limlari	1 440 420,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 440 420,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	Irrigatsiya bo‘limi	1 502 452,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 502 452,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9	Veterinariya sohasi bo‘limlari	1 533 172,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 533 172,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10	Mehnat bo‘limi	601 431,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	601 431,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11	Moliya bo‘limi	954 150,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	954 150,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tizimidagi sohalarga (tuman hokimligi, ijtimoiy nafaqalar, obodonlashtirish sohasi bo‘limlari hamda tuman hokimligi zaxira jamg’armasi)	108 839 929,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	108 839 929,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tizimidagi sohalar(xalq qabulxonasi, axborot kutubxona markazi)	432 656,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	432 656,0

	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
14	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tizimidagi sohalar(tuman hokmligi kengash kotibiyati)	254 689,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	254 689,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
15	Mahalla va oilani qullab-quvvatlash bo'limi	775 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	775 000,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16	Mahalla fuqarolar yig'inlari	6 933 526,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 933 526,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
17	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	11 266 439,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 266 439,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 828 561,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 828 561,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Халқ депутатлари Қамаши туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-94-4-58-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdaqvlat soliqlaridan Qamashi tuman mahalliy budjetiga 2022-yildağı ajratmaları me'yortları

T-R	Tuman nomi	fotz hisobida								Qamashi tumanı	0	100	100	100	100	100	100	
		Yuridik shaxslardan olindigun to'ya soliq'i	Aylannadan olindigun soliq	Jismoniy shaxslerdan olindigun daromad soliq'i	Yakka turibdagi tadbekorlar schun jismoniy shaxslerden olindigun daromad soliq'i	Yakuniy us-sarf mazarraga bezzin, diniy yoqiq'i si va gaz realisatsiya qiliладигу akziz soliq'i	Yuridik shaxslerning mol-mulkiga solindigun soliq	Jismoniy shaxslerning mol-mulkiga solindigun soliq	Jismoniy shaxsler yeri soliq'i									
Qamashi tumanı	100	100	0	0	100	100	100	100	0									

T-R	Tuman nomi	Ver qu'ridan foydalanish uchun soliq - (norda materiallari)	Sav munisidiidan foydalanish uchun soliq	Davlat boji	Jurimalur	Yig'imir	Davlat uniar korxonalarining sef	Davlat milli bo'yicha ijara va lovardan xususiyash-tirish	Boshqular
Qamashi tumanı		100	100	0	0	100	100	100	0

Халқ депутатлари Қамаши туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-94-4-58-K/21-сон қарорига
5-илова

**Qamashi tuman mahalliy budjetining
2022-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi**

ming so'mda

Budjet nomi	Daromad	Xarajat
Qamashi tumani	101 210 000,00	238 848 499,00

Халқ депутатлари Қамаши туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-94-4-58-K/21-сон қарорига
6-илова

**Qamashi tuman mahalliy budgetining 2022-yilgi yuqori budgetdan
ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdori**

ming so'mda			
Hudud nomi	Tartibga soluvchi transfert miqdori	Qamashi tumani	137 638 499,00

Халқ депутатлари Қамаши туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-94-4-58-K/21-сон қарорига
7-илова

**2022-yil uchun Qamashi tumanning mahalliy budgeti shaxsiy g‘azna
hisobvaraqlarida turgan budget mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam
miqdori**

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	Qamashi tumani	957 976,00